1

Bob

PEDAGOGNI KASBIY QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMI

1.1. Pedagoglarni attestatsiyadan o‘tkazishi

1.2. O‘qituvchining kasbiy standart va kompetensiyalar

1.3. Uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish

1.4. Metodik xizmat va metodistlar faoliyati

1.5. O‘qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi

1.6. Uzluksiz kasbiy rivojlanish: malaka oshirish va amaliy natija



1.1. PEDAGOGLARNI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH

Iqtibos

“Men o‘qituvchi, muallim deganda o‘zim uchun eng aziz va hurmatli bo‘lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman.”

Shavkat Mirziyoyev

Zamonaviy ta’lim muassasasining eng muhim resursi – bu yuqori malakali, o‘z fani va kasbiy standartlarini mukammal biladigan, zamonaviy metodikani puxta egallagan pedagoglar jamoasidir. Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini baholash hamda ularni rag‘batlantirishga xizmat qiladigan boshqaruv mexanizmidir. Direktorning vazifasi attestatsiya jarayoniga tayyorgarlikni tizimli tashkil etish, pedagoglarni o‘z vaqtida xabardor qilish, pedagog uchun motivasiya berish, metodik qo‘llab-quvvatlashni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Direktor uchun muhim

Maktab direktori attestatsiya jarayonini bevosita boshqarmasa-da, uning maktabdagi muhiti va o‘qituvchilarning ruhiy tayyorgarligiga mas’uldir. Direktorning vazifasi - pedagoglarni ushbu jarayonga to‘g‘ri yo‘naltirish va har bir o‘qituvchi uchun motivatsiya bera oladigan ichki metodik qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini rag‘batlantirish tizimi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

PEDAGOG KADRLARNI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISHNING ASOSIY VAZIFALARI

Pedagog kadrlarning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatida ko‘rsatilgan tayyorlov, ta’lim yo‘nalishi, mutaxassisligi yoki ixtisosligi bo‘yicha bilimlarini sinovdan o‘tkazish:

maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarining mutaxassislik fani va kasb standarti bo‘yicha bilim darajasi hamda pedagogik mahoratini, shuningdek, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarining o‘z fanini bilishi, faoliyati samaradorligi, pedagogik mahorati, psixologik tayyorgarligini o‘rganish va xolisona baho berish hamda ularni rag‘batlantirish:

maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarini yuqori bilim saviyasiga ega bo‘lgan, iste’dodli va iqtidorli pedagog kadrlar bilan to‘ldirish.



NAVBATDAGI MAJBURIY ATTESTATSIYA QACHON O‘TKAZILADI?

Pedagog kadrlar har besh yilda bir marta navbatdagi majburiy attestatsiyadan o‘tkaziladi

Ilgari attestatsiyadan o‘tmagan ishga yangi qabul qilingan pedagog kadrlar yoki oliy ta’lim tashkilotlarini bitirib birinchi bor ishga kirgan pedagog kadrlar kasbiy faoliyatiga uch yil to‘lgandan so‘ng navbatdagi majburiy attestatsiyadan o‘tkaziladi (magistraturani tugatganlar bundan mustasno).

Navbatdagi majburiy attestatsiya natijalariga ko‘ra amaldagi malaka toifasi (lavozimi) oshirilgan, saqlangan yoki tushirilgan, shuningdek, navbatdan tashqari attestatsiya natijalariga ko‘ra amaldagi malaka toifasi (lavozimi) oshirilgan yoki saqlangan pedagog kadrlar navbatdagi majburiy attestatsiyaga besh yildan so‘ng jalb etiladi

Pedagog kadrlarning majburiy attestatsiyaga o‘z muddatida jalb etilishi uchun pedagog kadr faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim tashkilotining rahbari shaxsan javobgar hisoblanadi.



MAKTABGACHA, UMUMIY O‘RTA, O‘RTA MAXSUS, PROFESSIONAL TA’LIM VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINING ATTESTATSIYASINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH SXEMASI

Bosqichlar	Ijrochilar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Ta’lim tashkilotlari	Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibi bilan tanishtirish, pedagog kadrlarning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash hamda baholash natijalari yuzasidan ma’lumotnomani ularga taqdim etish.	Har yili aprel, iyul va sentyabr, dekabr oylarida
	Vakolatli vazirliklar, manfaatdor vazirliklar va idoralar	Madaniyat va san’at, jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari, shuningdek, ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari uchun ijodiy, nazariy va amaliy sinovlarni o‘tkazadigan ishchi guruhlar tarkibini tasdiqlash.	Har yili 1-fevral va 1-sentyabrga qadar

Bosqichlar	Ijrochilar	Tadbirlar	Muddatlar
2-bosqich	Pedagog kadrlar, davlat xizmatlari markazlari, vakolatli vazirliklar	Attestatsiyadan o‘tish uchun pedagog kadrlar tomonidan davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud vakolatli vazirliklar rasmiy veb-sayti orqali hujjat topshirish.	Har yili yanvar, fevral va avgust, sentyabr oylarida
	Vakolatli vazirliklar	Pedagog kadrlarning mutaxassislik fani va kasb standarti bo‘yicha bilim darajasini baholash hamda pedagogik mahoratini aniqlash, o‘quv fani bo‘yicha malaka sinovlaridan o‘tkazish.	Har yili mart, may, oktabr va noyabr oylarida
	Vakolatli vazirliklar, manfaatdor vazirliklar va idoralar	Madaniyat va san’at, jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari, shuningdek, ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari uchun ijodiy, nazariy va amaliy sinovlarni o‘tkazish va baholash.	Har yili mart, may, oktabr va noyabr oylarida
3-bosqich	Vakolatli vazirliklar	Amaldagi malaka toifasi (lavozimi) saqlangan va oshirilgan pedagog kadrlarning ro‘yxatini tasdiqlash hamda elektron shakldagi sertifikatlarni vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-sayti orqali onlayn generatsiya qilish.	Har yili iyun va dekabr oylarida
	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Yangidan tasdiqlangan malaka toifalari yoki lavozimlarga asosan pedagog kadrlarning oylik ish haqlarini qayta hisob-kitob qilish.	Har yili 1-iyulga va 1-yanvarga qadar
3-bosqich	Apellyatsiya komissiyasi	Attestatsiya natijalaridan norozi bo‘lgan pedagog kadrlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish.	Murojaat qilingan paytdan boshlab 10 kunda
	Apellyatsiya komissiyasi	Apellyatsiya komissiyasi qarori nusxasini murojaat etuvchi pedagog kadrga taqdim etish.	Komissiya qarori chiqqan paytdan boshlab 5 kunda

Eslatma

Pedagog kadrlar uchun malaka sinovlari har yili mart - may hamda oktabr - noyabr oylarida vakolatli vazirliklar tomonidan o‘tkaziladi.

NAVBATDAGI MAJBURIY ATTESTATSIYAGA JALB ETILMAYDIGAN PEDAGOG KADRLAR O‘Z XOHISHIGA KO‘RA NAVBATDAN TASHQARI ATTESTATSIYADAN O‘TISHLARI MUMKINMI?

Navbatdagi majburiy attestatsiyaga jalb etilmaydigan pedagog kadrlarning amaldagi malaka toifalari (lavozimlari) saqlanib qoladi hamda ularga ta’lim tashkilotlarida ishlagan davrida mazkur malaka toifasi (lavozimi) bo‘yicha haq to‘lanadi.

O‘z xohishiga ko‘ra navbatdan tashqari attestatsiyada qatnashib, malaka toifasini (lavozimini) oshirgan yoki saqlab qolgan pedagog kadrlarga oshirilgan yoki saqlab qolingan malaka toifasi (lavozim) bo‘yicha haq to‘lanadi.

O‘z xohishiga ko‘ra navbatdan tashqari attestatsiyada qatnashib, attestatsiyadan o‘ta olmagan pedagog kadrlarning malaka toifasi (lavozimi) tushirilmaydi hamda ularga navbatdan tashqari attestatsiyada qatnashishdan oldin amalda bo‘lgan malaka toifasi (lavozimi) bo‘yicha haq to‘lanadi.

Direktor uchun muhim

Navbatdagi majburiy attestatsiyadan o‘tish muddati tugashidan olti oy oldin pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tish lozimligi to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qilishi;
pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibi bilan tanishtirishi hamda o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari attestatsiyadan o‘tish uchun hujjat topshirish boshlangunga qadar ularning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholashni tashkil etishi lozim.

Normativ asos

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarorining 1-ilovasi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizomi tasdiqlangan.

Muhim

Ta’lim muhiti qanchalik puxta tashkil etilsa, o‘quv jarayoni, pedagogik faoliyat, ota-onalar bilan hamkorlik va jamoatchilik ishtiroki shunchalik tartibli va samarali bo‘ladi.

ATTESTATSIYANI QAYSI VAKOLATLI TASHKILOTLAR O‘TKAZADI?

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim pedagog kadrlari bo‘yicha birinchi bosqichda - pedagogning mutaxassislik fani va kasb standarti bo‘yicha bilim darajasi, ikkinchi bosqichda - pedagogik mahorati baholanadi.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida 692-son qarori







NAVBATDAGI MAJBURIY ATTESTATSIYAGA QAYSI PEDAGOGLAR JALB ETILMAYDI?

Fan nomzodi, falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) darajasiga hamda Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan berilgan katta ilmiy xodim, dotsent va professor ilmiy unvoniga ega bo‘lgan pedagog kadrlar;

pedagogik faoliyat bo‘yicha uch yildan kam bo‘lgan ish stajiga ega pedagog kadrlar;

homilador ayollar, ular homilador bo‘lgan davrda hamda ishga chiqqanidan keyin bir yil davomida;

homiladorlik va tug‘ish hamda bolani parvarish qilish ta’tillarida bo‘lgan ayollar, ular ta’tilda bo‘lgan davrda hamda ishga chiqqanidan keyin bir yil davomida.

Normativ asos

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarorining 1-ilovasi 6-,8-,9-bandi.

ATTESTATSIYADAN O‘TISH UCHUN HUJJATLAR QACHON TOPSHIRILADI?

Pedagog kadrlar oliy ma’lumot olganligi yoki qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganligi haqidagi diplomda (keyingi o‘rinlarda - diplom) ko‘rsatilgan tayyorlov, ta’lim yo‘nalishi, mutaxassislik yoki ixtisosligiga mos keladigan o‘quv fanlar bo‘yicha attestatsiyadan o‘tadi.

Attestatsiyadan o‘tish uchun pedagog kadrlar har yili 1-yanvardan 1-martga qadar va 1-avgustdan 1-oktabrga qadar bevosita davlat xizmatlari markazlari orqali yoki **“Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali”** yoxud vakolatli vazirliklarning rasmiy veb-saytida ro‘yxatdan o‘tgan holda murojaat qiladilar.

Normativ asos


Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarorining 1-ilovasi 2-bob.

PEDAGOG XODIMNING ATTESTATSIYADA QATNASHISHI MAJBURIYMI?

Pedagog kadrlar attestatsiyada uzrli sababga (vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi, davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganligi, respublika va xalqaro musobaqalarda ishtirok etganligi, vaqtincha xorijiy mamlakatda safarda bo‘lganligi, yaqin qarindoshining vafoti, vakolatli davlat organi yoki ta’lim tashkilotlari rahbarlarining ma’lumotnomasida ko‘rsatilgan boshqa asoslarga) ko‘ra kelmagan bo‘lsa, ularning attestatsiyasi boshqa muddatga ko‘chiriladi.

Pedagog kadr uzrsiz sababga ko‘ra attestatsiyada ishtirok etmagan bo‘lsa, u attestatsiyadan o‘tmagan hisoblanadi hamda uning tegishli malaka toifasi (lavozimi) bir pog‘ona tushiriladi.

Uzrsiz sababga ko‘ra attestatsiyada ishtirok etmagan mutaxassis (oliy ma’lumotli o‘qituvchi) lavozimidagi pedagog kadr attestatsiyadan o‘tmagan hisoblanadi hamda ish beruvchi xodimning malakasi yetarli bo‘lmaganligi sababli u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish huquqiga ega.



Normativ asos

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarorining 1-ilovasi 45-46- bandi

PEDAGOG XODIM ATTESTATSIYA NATIJALARIDAN SHIKOYAT QILISHI MUMKINMI?

Attestatsiya natijalaridan norozi bo‘lgan pedagog kadrlar natijalar e’lon qilingan kundan boshlab o‘n kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga yozma ravishda ariza (shikoyat) berishlari mumkin.

Apellyatsiya komissiyasiga yozma ravishda yoki vakolatli vazirlikning rasmiy veb-saytidagi murojaat etuvchi pedagog kadrning shaxsiy kabineti orqali elektron shaklda murojaat qilinadi.

Apellatsiya komissiyasiga murojaat qilish yozma ravishda yoki vakolatli vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali elektron tarzda amalga oshiriladi.

Normativ asos

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarorining 1-ilovasi 51- bandi.

1.2. O‘QITUVCHINING KASBIY STANDARTI VA KOMPETENSIYALARI

Iqtibos

“O‘qituvchi o‘zining faqat nimani o‘rgatishini emas, balki qanday o‘rgatishni ham bilishi kerak.”

K.D. Ushinskiy

Pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini baholash qilish va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash zamonaviy ta’lim boshqaruvining muhim tarkibiy qismidir. Kasbiy kompetensiyalar - bu pedagogik xodimning ta’lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish bo‘yicha mehnat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan fan, metodika, psixologik-pedagogik va kommunikativ kompetensiyalar majmuidir.


Kompetensiya turi	Tavsifi
Fanga oid (predmet)	Fan mazmunini chuqur bilish, o‘quv dasturini to‘liq egallash
Metodik	Ta’lim berish usullari, texnologiyalar va vositalarni samarali qo‘llay olish
Psixologik-pedagogik	O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, individual yondashuv
Kommunikativ	O‘quvchi, ota-ona va hamkasblar bilan samarali muloqot qila olish

Direktor uchun muhim

Direktor pedagoglarning kasbiy kamchiliklarini aniqlash tizimini yo‘lga qo‘yishi, ularning o‘sish yo‘lini rejalashtirishda ko‘maklashishi va attestatsiya natijalarini kasbiy rivojlanish uchun asos qilib olishi lozim.

Eslatma

O‘quvchilar mustaqil diagnostika, davlat imtihonlari va xalqaro baholash dasturlarida ko‘rsatgan natijalar pedagogning kasbiy salohiyatini baholashda muhim ma’lumot manbai bo‘lishi mumkin.



Pedagogning kasbiy standarti pedagogik faoliyat sifatini boshqarish va uning uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiladigan asosiy mezonlardan biridir.

Pedagogning kasbiy standarti — umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy faoliyatiga, bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy-kasbiy fazilatlariga qo‘yiladigan talablar majmui.

Kasbiy standart pedagogning o‘z kasbiy vazifalarini sifatli bajarishi uchun zarur kompetensiyalarni belgilaydi. Kompetensiya bilim, amaliy ko‘nikma, kasbiy qadriyat va mas’uliyatli faoliyatning o‘zaro uyg‘unlashgan ifodasidir.

KASBIY STANDARTNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI


Kasbiy standart o‘qituvchining ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalariga talablarni hamda u o‘z kasbiy faoliyatida rioya qilishi zarur bo‘lgan qadriyatlarini ta’riflaydi.

O‘qituvchining kasbiy standarti tuzilmasi

IJTIMOIY KOMPETENSIYALAR	KASBIY BILIMLAR	AMALIY KO‘NIKMALAR
Kasbiy faoliyatda hamkorlik, mas’uliyat va etika	Fan, metodika va pedagogikaga oid bilimlar	Rejalashtirish, ta’lim berish, baholash va hamkorlik ko‘nikmalari

1. Rejalashtirish
2. Ta’lim samaradorligi
3. Baholash va qayta aloqa
4. Tarbiyaviy faoliyat
5. Xavfsiz ta’lim muhiti
6. Kasbiy rivojlanish

7. Hamkorlik



Mazkur kompetensiya sohalari pedagogning asosiy mehnat funksiyalarini aks ettiradi hamda o‘quvchilarga sifatli ta’lim-tarbiya berish va ularning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

KASBIY STANDART SOHALARINING QISQACHA MAZMUNI

1. O‘QUV JARAYONINI REJALASHTIRISH SOHASI

O‘qituvchi faoliyati mavzuni bayon qilish bilangina cheklanmaydi, balki aniq ta’lim natijalariga yo‘naltiriladi. U davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari asosida darslarni rejalashtiradi, maqsadlarni o‘quvchi dars yakunida namoyish eta oladigan aniq va o‘lchanadigan natijalar shaklida belgilaydi hamda fanlararo bog‘liqlikni hisobga oladi.

2. TA’LIM SAMARADORLIGINI TA’MINLASH

O‘qituvchi faqat bir tomonlama bayon usuliga tayanib qolmasdan, dars maqsadi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos interfaol, hamkorlikka asoslangan, muammoli va loyihaviy metodlardan foydalanadi. Raqamli vositalar pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llanadi, nazariy bilimlar hayotiy vaziyatlar va amaliy topshiriqlar bilan bog‘lanadi.

3. O‘ZLASHTIRISHNI BAHOLASH VA QAYTA ALOQANI TAQDIM ETISH


Baholash diagnostik, shakllantiruvchi va yakuniy baholash shakllarini o‘z ichiga oladi. O‘quvchi ishi oldindan belgilangan aniq mezonlar asosida baholanadi. Qayta aloqa o‘quvchiga uning erishgan natijasi, takomillashtirishi lozim bo‘lgan jihatlar va keyingi qadamlarni tushunarli tarzda ko‘rsatishi kerak.

4. TARBIYAVIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH

Ta’lim va tarbiya o‘zaro uzviy jarayondir. O‘qituvchi dars va sinfdan tashqari faoliyat orqali o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bag‘rikenglik, hamkorlik, mas’uliyat hamda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiradi. O‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanadi.

5. XAVFSIZ RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM MUHITINI YARATISH VA TA’MINLASH

Maktabda har bir o‘quvchining jismoniy va psixologik xavfsizligi ta’minlanishi lozim. O‘quvchi kamsitish, tazyiq, zo‘ravonlik va qo‘rquvdan xoli muhitda ta’lim olishi kerak. O‘qituvchi sinfdagi xavfsizlik qoidalarini tushuntiradi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va internetdan xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashadi.



6. O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH VA KASBIY O‘SISH

O‘qituvchi uzluksiz ta’lim tamoyiliga amal qilib, malaka oshirish kurslari, seminar, trening va metodik tadbirlarda qatnashadi. U hamkasblari bilan tajriba almashadi, darslarni kasbiy rivojlantirish maqsadida o‘zaro kuzatadi, o‘z faoliyatini tahlil qiladi va individual kasbiy rivojlanish rejasini amalga oshiradi.

7. HAMKASBLAR VA TA’LIM OLUVCHILARNING OTA-ONALARI BILAN HAMKORLIK

Ota-onalar ta’lim-tarbiya jarayonining muhim hamkori sifatida jalb etiladi. O‘quvchining yutuqlari va qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoji ota-ona bilan individual va maxfiy muloqotda muhokama qilinadi. Zarur hollarda o‘qituvchi maktab psixologi, maxsus pedagog va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda individual qo‘llab-quvvatlash choralarini belgilaydi.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI O‘QITUVCHISI KOMPETENSIYALARINING KASBIY STANDARTI

Kompetensiya doiralari/mehnat funksiyalari	Kompetensiyalar standartlari	O‘qituvchi faoliyati ko‘rsatkichlari/mehnat harakatlari
Umumiylashtirilgan mehnat funksiyasi. I. Ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarish		
1. O‘quv jarayonini rejalashtirish	1.1. O‘qituvchi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dastur doirasida faoliyatni rejalashtiradi	1.1.1. Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o‘quv rejalarini ishlab chiqadi
		1.1.2. O‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o‘quv dasturini moslashtiradi (agar kerak bo‘lsa)
		1.1.3. O‘z faoliyatini fanlararo kompetensiyalar predmetining korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini inobatga olgan holda rejalashtiradi
	1.2. O‘qituvchi o‘quv dasturga muvofiq o‘quv-uslubiy majmuani (dars rejasi, konspektlar, didaktik materiallar) ishlab chiqadi	1.2.1. O‘quvchilar bilimini baholash natijasida olingan ma’lumotlarni inobatga olgan holda, darsning aniq va o‘lchamli maqsad va natijalarini aniqlab, dars rejasini ishlab chiqadi
		1.2.2. Darsning maqsadlari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va o‘zlashtirishiga mos keladigan dars shakllari va usullarini rejalashtirish
		1.2.3. Tegishli o‘quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtiradi
		1.2.4. Dars jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalar integratsiyasini rejalashtiradi

Kompetensiya doiralari/mehnat funksiyalari	Kompetensiyalar standartlari	O‘qituvchi faoliyati ko‘rsatkichlari/mehnat harakatlari
2. Ta’lim samaradorligini ta’minlash (ta’lim dasturlarini amalga oshirish)	2.1. O‘quv jarayonini samarali tashkil qiladi	2.1.1. Dars maqsadlari asosida o‘quvchilar uchunerishimli vazifalarni belgilaydi
		2.1.2. Dars mavzusiga mos keladigan namoyish va tarqatma materiallardan foydalanadi
		2.1.3. Darsda vaqtdan oqilona foydalanadi
		2.1.4. Ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash va ta’limiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanadi
		2.1.5. O‘quvchilar bilimini baholash natijasida olingan ma’lumotlar asosida darsni tashkil etish va ta’lim berishdagi yondashuvlarining samaradorligini tahlil qiladi
	2.2. O‘qituvchi tegishli o‘quv maqsadlari va o‘quvchilar yoshi xususiyatlariga mos usullar va yondashuvlardan foydalanadi	2.2.1. O‘qitishning faol usullaridan foydalanadi (frontal ta’lim ustun bo‘la olmaydi)
		2.2.2. Umumiy o‘rta ta’limning ta’lim standartlarida belgilangan o‘quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullardan foydalanadi
		2.2.3. O‘quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etadi
		2.2.4. O‘quvchilarga metakognitiv strategiyani o‘rgatishda turli yondashuvlardan, shu jumladan rejalashtirish, nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalaridan foydalanadi (kognitiv nosozliklarni inobatga olgan holda)
	2.3. O‘qituvchi, o‘quvchilarda o‘qishga motivatsiyani yaratib, ularni jarayonli faoliyat jalb qiladi.	2.3.1. O‘quvchilarga individual ta’lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘z vaqtida differensial yordam beradi
		2.3.2. Dars mavzusini amaliyot bilan (hayotdagi misollar yordamida) bog‘laydi
		2.3.3. Dars davomida har bir o‘quvchiga o‘z g‘oyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini beradi
		2.3.4. O‘quvchilar darsda faol qatnashishini motivatsiyalashda ularning shaxsiy qiziqishlaridan foydalanadi
		2.3.5. O‘quvchilarni darsga qiziqtirishda turli usullardan foydalanadi
		2.3.6. Sinfda samarali muloqotni ta’minlaydi
3. O‘zlashtirish baholash va qayta aloqani taqdimetish.	3.1. O‘qituvchi zamonaviy baholash nazariyalarini biladi va qo‘llaydi	3.1.1. Ta’lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanadi
		3.1.2. Ta’lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanadi
	3.2. O‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini muntazam ravishda baholaydi va tahlili qiladi	3.2.1. O‘quvchilar tomonidan bilimlarni egallash darajasini (hajmini) muntazam / tizimli ravishda kuzatib boradi
		3.2.2. O‘quvchilar erishgan yutuqlarni natijalarini tahlil qiladi


Kompetensiya doiralari/mehnat funksiyalari	Kompetensiyalar standartlari	O‘qituvchi faoliyati ko‘rsatkichlari/mehnat harakatlari
		3.2.3. Dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanadi
	3.3. O‘quvchilarga ularning yutuqlari haqida ma’lumotni taqdim etadi, ularni o‘qishni davom ettirishga va rivojlanishga motivlashtiradi	3.3.1. O‘quvchining yutuqlarini baholash, baho asoslab beradi
		3.3.2. O‘quvchilarning yutuqlarini baholash orqali, ularni o‘qishni davom ettirishga qiziqtiradi
	3.4. O‘qituvchi uning o‘quvchilari o‘qitishda to‘qnashadigan qiyinchiliklarni kuzatadi va tavsiflaydi. Kerak holatlarda o‘qituvchi tegishli mutaxassisga murojaat etadi	3.4.1. O‘quvchilar ta’lim jarayonida to‘qnashgan qiyinchiliklarini kuzatadi va qayd etadi
		3.4.2. Ushbu sinf (guruh)da dars beradigan hamkasblari bilan muayyan o‘quvchining ta’lim olishdagi qiyinchiliklari to‘g‘risida maslahatlashadi
		3.4.3. Muayyan o‘quvchining ta’lim olishdagi qiyinchiliklari to‘g‘risida tegishli soha mutaxassislari bilan maslahatlashadi
4. Tarbiyalash faoliyatini tashkil etish	4.1. O‘qituvchi tarbiyalash faoliyatni ta’lim oluvchini rivojlanishiga va ijtimoiy me’yorlarni shakllanishiga ko‘maklashuvchi turli shakllarda olib boradi	4.1.1. Ta’lim oluvchilarning ehtiyojlarini inobatga olib ularning rivojlanishiga ko‘maklovchi tarbiyaviy maqsadlar va vazifalarni belgilaydi
		4.1.2. Bolaning emotsional-qadriyatli doirasini (bolaning kechinmalar madaniyati va qadriyatli yo‘nalganliklari) rivojlantiruvchi vaziyatlar va hodisalarni loyihalashtiradi
		4.1.3. Ta’lim muassasasi ichki tartibi ustavi va qoidalariga muvofiq ta’lim oluvchining xulq-atvorining aniq qoidalarini belgilaydi va qabul qiladi
		4.1.4. Ta’lim muassasaning imkoniyatlarini, yashash joyi va mintaqaning tarixiy-madaniy o‘ziga xosligini hisobga olgan holda sinfdan tashqari ishlarning har xil turlarini: o‘yin, o‘quv-tadqiqot, badiiy va samarali, madaniy va bo‘sh vaqtlarini tashkil etadi
	4.2. O‘qituvchi tarbiyaviy faoliyatni qadriyatlarni rivojlantirib va tarbiyalashning interfaol shakl va usullarini qo‘llab amalga oshiradi	4.2.1. Tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, shu jumladan interaktiv shakl va usullarini mashg‘ulot va sinfdan tashqari ishlarida qo‘llaydi
		4.2.2. Tarbiya ishlarni olib borishda o‘quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga oladi usullardan foydalanadi
		4.2.3. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari faoliyatini tashkil etishda yordam beradi va ko‘maklashadi
		4.2.4. Ziddiyatlarni hal qilish, sinfda va undan tashqarida muloqot qilish uchun ijobiy muhit yaratishda muloqot o‘tkazadi
		4.2.5. O‘zgaruvchan ko‘p madaniyatli muhitda o‘quvchilarda bag‘rikenglik, odob-axloq va hayotga tayyorgarlik bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantiradi

Kompetensiya doiralari/mehnat funksiyalari	Kompetensiyalar standartlari	O‘qituvchi faoliyati ko‘rsatkichlari/mehnat harakatlari
		4.2.6. O‘quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog‘lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantiradi
5. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish va ta’minlash	5.1. O‘qituvchi barcha o‘quvchilar uchun psixologik va jismoniy xavfsiz muhitni yaratadi	5.1.1. O‘quvchilar erkin rivojlanishlari va o‘zlarini namoyon eta olishlari uchun o‘zaro hurmat muhitini yaratadi
		5.1.2. Jinsi, millati, madaniyati, ona tili, dini, oilaviy ijtimoiy-iqtisodiy holati va / yoki alohida ehtiyojlaridan qat’iy nazar, har bir o‘quvchiga o‘qish va sinf hayotida qatnashish uchun teng imkoniyatlar yaratadi
		5.1.3 Nizoli vaziyatlarni yetarli darajada hal qiladi
		5.1.4. O‘quvchilarga xavfsizlik qoidalarini mazmuni va ularga rioya qilish asoslarini tushunishga va unga rioya qilishga yordam beradi
	5.2. Pedagog sinfni samarali boshqaradi va ta’limiy muhitni o‘quvchilar ehtiyojlariga moslashtiradi	5.2.1. O‘quvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan aniq ko‘rsatmalar berish orqali sinf(guruh)dagi o‘quvchilar faoliyatini boshqaradi
		5.2.2. O‘quvchilarning maxsus ta’limiy ehtiyojlari asosida individuallashtirilgan ish olib boradi
		5.2.3. O‘quvchilarni sinf(guruh)dagi va maktabdagi odob-ahloq qoidalarini yaratish va unga rioya etishga jalb qiladi
	5.3. O‘qituvchi o‘quvchilarda fuqarolik kompetensiyalar va mediasavodxonlikni shakllantiradi	5.3.1. O‘quvchilarda fuqarolik kompetensiyalarni shakllantiradi
		5.3.2. O‘quvchilarga zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam beradi
6. O‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish	6.1. O‘qituvchi butun hayot davomida o‘qishning muhimligini anglaydi va kasbiy rivojlanish uchun turli imkoniyatlardan foydalanadi	6.1.1. Muntazam malaka oshirish kurslaridan o‘tadi 6.1.2. Seminar va treninglarda, shuningdek kasbiy rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan boshqa tadbirlarda qatnashadi 6.1.3. Maqsadi ishni takomillashtiradi va tajriba almashishdan iborat bo‘lgan maktabning “uslubiy kengashlari”da qatnashadi
	6.2. O‘qituvchi tajriba almashish va o‘z kasbiyligi darajasini oshirish uchun hamkasblari bilan hamkorlikda ishlaydi	6.2.1. O‘zaro darslarda qatnashadi, ularni tahlil qiladi, undan o‘zining kasbiy faoliyatida foydalanadi
		6.2.2. O‘z tajribasini namoyish etish uchun ochiq darslarga tayyorgarlik ko‘radi va o‘tkazadi

Kompetensiya doiralari/mehnat funksiyalari	Kompetensiyalar standartlari	O‘qituvchi faoliyati ko‘rsatkichlari/mehnat harakatlari
	6.3. O‘qituvchi o‘z kasbiy rivojlanishini o‘z ishini o‘zi tahlil qilish va o‘zi baholash asosida rejalashtiradi va amalga oshiradi	6.3.1. Doimiy ravishda fanga oid adabiyotlar bilan tanishadi, yangi bilimlarni amaliyotda qo‘llaydi
		6.3.2. O‘zining ta’lim faoliyatini (kuchli va zaif tomonlarini) yetarlicha baholash va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilay oladi
		6.3.3. Mustaqil ta’lim olish rejasi va uni amalga oshirishdan keyingi hisobotni tuzadi
		6.3.4. O‘zining ish amaliyotida kerakli o‘zgarishlarni amalga oshiradi
7. Hamkasblar va ta’lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik	7.1. O‘qituvchi bolalar rivojlanishi maqsadida ota-onalarni maktab bilan hamkorlikni turli shakllariga jalb qiladi	7.1.1. O‘quvchilarning ota-onalarini (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni) ta’lim jarayoniga jalb qiladi
		7.1.2. O‘quvchilarning ota-onalarini (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni) sinf va maktab hayotiga jalb qiladi
		7.1.3. Ota-onalarni bolalarni rivojlantirish va o‘qitish muhitiga nisbatan qarorlarni qabul qilishga jalb qiladi
	7.2. O‘qituvchi o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni bajarishda hamkasblari va mutaxassislar bilan hamkorlik qiladi	7.2.1. O‘quvchining individual ta’lim trayektoriyasini loyihalashtirish va to‘g‘rilash uchun o‘qituvchilar va boshqa mutaxassislar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ta’lim natijalarining barcha turlariga (fan, meta-mavzu va shaxsiy) erishish vazifalariga muvofiq ravishda hamkorlik qiladi
		7.2.2. Tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o‘quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo‘limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qiladi

Normativ asos

Normativ asos: umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisining amaldagi kasbiy standarti va pedagog faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlar. Kasbiy standartning tasdiqlangan nusxasi va reyestr ma’lumotlari ish jarayonida birlamchi rasmiy manba asosida qo‘llanadi.



MAKTAB DIREKTORI NIMALARGA E’TIBOR QARATISHI KERAK?

Dars kuzatuvini rivojlantiruvchi yondashuv asosida tashkil etish:

Rahbariyat darsni kuzatishda o‘qituvchining faqat bir tomonlama bayon usuliga tayanib qolmaganiga, o‘quvchilarning fikrlashi, muloqoti va amaliy faolligini ta’minlovchi metodlardan maqsadli foydalanganiga e’tibor qaratadi. Kuzatuv natijalari jazolash uchun emas, metodik yordam va kasbiy rivojlanish rejasini belgilash uchun qo‘llanadi.

Baholash tizimini nazorat qilish:

O‘qituvchilar baholashni faqat raqam qo‘yish vositasi sifatida emas, o‘quvchining yutug‘ini e’tirof etish, qiyinchiliklarini aniqlash va keyingi rivojlanish yo‘lini ko‘rsatishga xizmat qiladigan qayta aloqa vositasi sifatida qo‘llashlari lozim.

Ishga qabul qilishda malaka talablariga rioya etish:

Pedagogni ishga qabul qilishda uning ma’lumoti, mutaxassisligi, qayta tayyorlash hujjatlari va qonunchilikda belgilangan boshqa malaka talablari dars beradigan fan hamda lavozim vazifalariga muvofiqligi tekshiriladi.

Direktor uchun muhim

Maktabda jinsi, millati, tili, dini va ijtimoiy holatidan qat’iy nazar barcha bolalar uchun stress va qo‘rquvsiz, xavfsiz hamda teng imkoniyatli ta’lim muhiti yaratiliganini nazorat qilishi shart.

TEZ-TEZ BERILADIGAN SAVOLLAR VA JAVOBLAR!

QANDAY SHAXSLARNI PEDAGOGIK FAOLIYAT UCHUN ISHGA QABUL QILISH MUMKIN EMAS?

Sud hukmi bilan bu huquqdan mahrum etilganlar;

qonunchilikda belgilangan jinoyatlar uchun avval yoki hozir jinoiy javobgarlikka tortilganlar;

muomalaga layoqatsiz deb topilganlar;

belgilangan ro‘yxatdagi kasalliklarga ega bo‘lganlar.

ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJI BO‘LGAN O‘QUVCHI UCHUN QANDAY YO‘L TUTILADI?

O‘quvchi ta’lim olishda qiyinchilikka duch kelganida, o‘qituvchi ota-ona, maktab psixologi, maxsus pedagog va boshqa tegishli mutaxassislar bilan hamkorlikda uning ehtiyojlarini o‘rganadi hamda individual qo‘llab-quvvatlash rejasini ishlab chiqadi.

PEDAGOGIK ETIKA VA AXLOQ QOIDALARI KASBIY STANDARTDA MAJBURIY TALAB SIFATIDA BELGILANGANMI?

Ha. Pedagog kasbiy faoliyatida pedagogik etika qoidalari, qonunchilik talablari va odob-axloq me’yorlariga rioya qilishi shart. Ushbu talablar pedagogning maqomi, kasbiy majburiyatlari va kasbiy standart mazmuni bilan uzviy bog‘liq.

1.3. UZLUKSIZ METODIK XIZMAT KO‘RSATISH

Iqtibos

Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa ta’lim sifati ham, mazmun ham, muhit ham o‘zgarmaydi.

Shavkat Mirziyoyev

Uzluksiz metodik xizmat pedagoglarning kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash, ularga manzilli metodik yordam ko‘rsatish va ta’lim-tarbiya jarayonini metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimdir. Maktab darajasida ushbu faoliyat pedagogik kengash, metodik kengash, fan metodbirlashmalari va ustoz-shogird mexanizmlari orqali tashkil etiladi.

umumiy o‘rta ta’lim maktablarining fan Metodbirlashmalari;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarining pedagogik kengashi;

tuman (shahar)larda “Mentorlar guruhi” (jamoatchilik asosida) va h.k.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi “Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 8-son buyrug‘i


UZLUKSIZ METODIK XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINING TUZILMASI

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta’lim markazi

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi
Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalaridagi
O‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho‘basi



Metodbirlashma - bu umumiy o‘rta ta’lim maktablari (keyingi o‘rinlarda - umumta’lim maktablari)da uzluksiz metodik xizmat tizimining bir bo‘g‘ini hisoblanib, o‘qituvchilarga metodik xizmatni amalga oshiradigan, ularning innovatsiya, tajriba-sinov ishlari va ta’lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtiradigan jamoaviy organ hisoblanadi.

Metodbirlashmaning maqsadi o‘quv tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, fan o‘qituvchilariga metodik yordamni tashkil etish, tegishli o‘quv fanlarni o‘qitish uslublarini takomillashtirish va o‘qitish sifatini oshirishga ko‘maklashadi.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi “Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 8-son buyrug‘iga 2-ILOVA, 2-bob, 5-band.

METODBIRLASHMANING ASOSIY VAZIFALARI

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

kasbiy seminar-treninglar, mahorat va ochiq darslar tashkil etadi;

“Metodik tur” larda faol ishtirok etadi;

“Ustoz-shogird” an’anasini tizimli tashkil qiladi.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi “Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi
8-son buyrug‘iga 2-ILOVA, 2-bob, 6-band

Muhim

Metodbirlashma tarkibi umumta’lim maktabi direktorining buyrug‘i bilan shakllantiriladi. Metodbirlashmaning faoliyati umumta’lim maktabi direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan nazorat qilinadi.

METODBIRLASHMA RAHBARI VA A’ZOLARINING MAJBURIYATLARI

Metodbirlashmaning ish rejasini tuzish va uning bajarilishini nazorat qilish;

yosh o‘qituvchilarga uslubiy yordam ko‘rsatish;

tegishli fanlarni o‘qitish sifatiga e’tibor berish, Metodbirlashma faoliyati yuzasidan pedagogik kengashga hisobot berish.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi “Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 8-son buyrug‘iga 2-ILOVA, 4-bob, 18-19-band

METODBIRLASHMA FAOLIYATIDA YURITILADIGAN HUJJATLAR

Metodbirlashma faoliyatiga doir quyidagi hujjatlar bo‘lishi lozim:

- Metodbirlashmaning tasdiqlangan yillik ish rejasi;
- Yig‘ilish bayonnomasi;
- Yillik hisoboti

Muhim

Metodbirlashmaning yillik ish rejasi, yig‘ilish bayonnomasi, hisoboti uch yil mobaynida saqlanadi hamda tegishli arxivga topshiriladi.

TA’LIM TASHKILOTI RAHBARI BILISHI ZARUR BO‘LGAN JIHAT

O‘qituvchilar va boshqaruv xodimlarini ilmiy-metodik qo‘llab-quvvatlashning mintaqaviy tizimini rivojlantirish doirasida u rahbarlik qiladigan tashkilotning eng yaxshi o‘qituvchilari mintaqaviy metodik yadro tarkibiga kirishlari mumkin.

TEZ-TEZ BERILADIGAN SAVOLLAR VA JAVOBLAR!

METODBIRLASHMA QANDAY TASHKIL ETILADI VA UNGA KIM RAHBARLIK QILISHI MUMKIN?

Umumta’lim maktabida bitta fan turkumi bo‘yicha kamida uch nafar o‘qituvchi bo‘lsa, metodbirlashma tashkil etiladi.

Agar tegishli fan bo‘yicha o‘qituvchilar soni uch nafardan kam bo‘lsa, u holda ushbu fan o‘qituvchilari shu turkumdagi fan o‘qituvchilari bilan birgalikda bitta metodbirlashmaga birlashadi.

Metodbirlashma rahbari metodbirlashma a’zolari bilan kelishgan holda, maktab direktorining buyrug‘i bilan, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha metodik ishlarni yaxshi yo‘lga qo‘ygan, doimiy ravishda uzluksiz metodik xizmatni tashkil eta olgan, ijodkor va tajribali o‘qituvchilardan tanlab olgan holda har o‘quv yili boshida tayinlanadi.

METODBIRLASHMA YIG‘ILISHI QACHON O‘TKAZILADI?

Metodbirlashma yig‘ilishlari har chorakda kamida bir marta o‘tkaziladi.

METODBIRLASHMA HUJJATLARIGA KIM JAVOBGAR HISOBLANADI?

Metodbirlashma hujjatlarining yuritilishi va saqlanishiga metodbirlashma rahbari javobgar hisoblanadi.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi “Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 8-son buyrug‘iga 2-ILOVA, 3-,6-bob



1.4. METODIK XIZMAT VA METODISTLAR FAOLIYATI

Iqtibos

Tajribasiz muallim qorong‘uda yo‘l izlagan yo‘lovchi kabidir. Unga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi va madadkor bo‘luvchi rahnamo lozimdir.

Abdulla Avloniy

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, pedagog xodimlarning salohiyatini oshirish, o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan metodik xizmat ko‘rsatish tizimini belgilaydi.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi “Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 8-son buyrug‘iga 1-ILOVA, 1-bob.

METODISTLAR TOMONIDAN KO‘RSATILADIGAN METODIK XIZMATLAR



Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tayanch o‘quv rejasi, o‘quv dasturlarini amaliyotga joriy etilishini ta’minlaydi;

o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini (kreativ fikrlash, jamoada ishlash, AKT ko‘nikmalari va mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, muammoni yechish va qaror qabul qilish, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, kommunikativ ko‘nikmalari va h.k) rivojlantirishga oid mavzularda mahorat darslarini tashkil etadi;

o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi fan metodistlari bilan hamkorlikda metodik yordamlar tashkil etadi;

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi “Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 8-son buyrug‘iga 1-ILOVA, 7-band

METODISTLAR PEDAGOGLARNI TOIFALARIGA QARAB METODIK XIZMAT KO‘RSATISHI TAVSIYA ETILADI:

Yosh mutaxassislar	Ish staji 3 yilgacha, yangi qabul qilingan pedagoglar
Kasbiy qiyinchiliklari bor	Qiyinchiliklarga duch kelayotgan pedagoglar
Inklyuziv ta’lim	Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlovchi pedagoglar
Iqtidorli bolalar bilan	Fan olimpiadalari va xalqaro tanlovlarga tayyorlovchilar
Kasbiy mahorati yuqori	Tanlov g‘oliblari, metodik tavsiyalar mualliflari
Ekspertlar va liderlar	Metodbirlashma rahbarlari, ekspert guruhi a’zolari

IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH ILMIY-AMALIY MARKAZI XODIMLARI O‘QITUVCHILARGA QUYIDAGI METODIK XIZMATLARNI KO‘RSATADI

Mezonlarga asoslangan yangi baholash tizimini amaliyotga samarali joriy qilishda metodik yordam ko‘rsatib boradi; baholash tizimini umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga joriy etish uchun o‘quvlar tashkil etib boradi;

loyihaga asoslangan ta’limning umumiy o‘rta ta’lim maktablariga joriy etilishida Respublika ta’lim markazi bilan hamkorlikda metodik yordam ko‘rsatib boradi;

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZINING METODISTLARI FAN O‘QITUVCHILARIGA QUYIDAGI METODIK XIZMATLARNI KO‘RSATADI

Fan o‘quv dasturlarini ishlab chiqadi va ulardagi yangi mavzularni o‘qitish usullari yuzasidan tavsiya beradi;

fan yo‘nalishi bo‘yicha namunaviy taqvim-mavzu reja ishlab chiqadi; barcha fan yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan seminarlar tashkil qiladi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etishda metodik xizmatni amalga oshiradi;

fanlar bo‘yicha metodik qo‘llanma va tavsiyalar ishlab chiqadi.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi “Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 8-son buyrug‘iga 1-ILOVA, 10-11-band



PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZLARIDAGI METODISTLARNING VAZIFALARI

Ta’lim mazmuni bilan bog‘liq vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar tomonidan taqdim etilayotgan materiallar va normativ hujjatlarning mazmun-mohiyatini maktab jamoasiga yetkazib bera olishi;

o‘quv rejalar hamda o‘quv dasturlarini takomillashtirish, tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda amaliyotga joriy etishda pedagoglarga ko‘maklashishi;

METODISTLARGA QO‘YILADIGAN MALAKA TALABLARI

Tegishliligi bo‘yicha mutaxassisligi to‘g‘ri keluvchi kamida bakalavr darajasidagi oliy pedagogik ma’lumot;

xorijiy tillardan birining boshlang‘ich darajasini va axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;

3 yildan kam bo‘lmagan pedagogik yoki maktabgacha va maktab ta’limi boshqaruv organlaridagi ish staji.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi “Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 8-son buyrug‘i 4-ILOVA

TEZ-TEZ BERILADIGAN SAVOLLAR VA JAVOBLAR!

O‘QUVCHILARI YUQORI NATIJA KO‘RSATAYOTGAN PEDAGOG BILAN HUDUDIY METODIST QANDAY ISHLAYDI?

- ustoz-shogird (mentorlik) tizimida faoliyat yuritish;
- o‘zining ilg‘or kasbiy tajribasini ommalashtirish;
- ochiq darslar va mahorat darslari (master-klasslar) o‘tkazish;
- pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi boshqa tadbirlarni tashkil etish.

1.5. O‘QITUVCHINING INDIVIDUAL KASBIY RIVOJLANISH TRAYEKTORIYASI

Iqtibos

Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlantirmak, fikrimizni nurlandirmak, axloqimizni go‘zallantirmak lozim.

Abdulla Avloniy

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta’minlash, ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini muntazam oshirib borish, Prezident maktablarida to‘plangan ilg‘or tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish.

Muhim

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining xodimlari uchun besh yilda bir marotaba ishdan ajralgan holda o‘tkaziladigan malaka oshirish kurslari joriy qilingan.

Prezident maktablarida o‘quvchilarni o‘qitish, kasb-hunarga yo‘naltirish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribalar uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etiladi.

Pedagog va mutaxassis kadrlar kasbiy rivojlanishining uzluksizligini ta’minlash maqsadida barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida malaka oshirishning “Kasbiy rivojlanish soati”, tayanch umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida esa, shuningdek, “Kasbiy rivojlanish kuni” kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etiladi.



Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qaror

O‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari bosqichma-bosqich joriy etildi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari tashkil etiladigan kunlar quyidagi jadval asosida belgilangan.

T/R	Kasbiy rivojlanish kuni	O‘quv fanlari
1	Dushanba	Ijtimoiy fanlar (tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya) o‘qituvchilari
2	Seshanba	Filologiya fanlari (ona tili va adabiyot, o‘zbek tili/rus tili) o‘qituvchilari
3	Chorshanba	Tabiiy fanlar (fizika va astronomiya, kimyo, biologiya, geografiya va iqtisodiyot, tabiiy fan – Science) o‘qituvchilari
4	Payshanba	Aniq fanlar (matematika, informatika va axborot texnologiyalari) o‘qituvchilari
5	Juma	Xorijiy tillar o‘qituvchilari
6	Shanba	Amaliy fanlar (tasviriy san’at, chizmachilik, musiqa madaniyati, texnologiya, jismoniy tarbiya, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik) va boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari

“Kasbiy rivojlanish kuni” – o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash va o‘z bilimini muntazam boyitib borish, zamonaviy o‘qitish metodikasi va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quv-seminar, trening, mahorat darslari va mustaqil ta’lim tadbirlari o‘tkazilishi belgilangan haftaning muayyan kuni.

“Kasbiy rivojlanish soati” – kasbiy rivojlanish kunlarida tashkil etilgan o‘quvlarda o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlari faoliyat ko‘rsatayotgan umumta’lim maktablarida qo‘llashlarini tahlil qilish, ularga zarur metodik yordam ko‘rsatish, kasbiy rivojlanish uchun tavsiyalar berish, dars kuzatish, refleksiv amaliyot hamda maktab negizida malaka oshirish tadbirlari o‘tkaziladigan soatlar.

“KASBIY RIVOJLANISH KUNI” VA “KASBIY RIVOJLANISH SOATI” TADBIRLARINING VAZIFALARI

O‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik va innovatsion ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirish uchun sharoit yaratish;

o‘qituvchilarning o‘zi ustida mustaqil ishlashi va ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganishini tashkil etish;

o‘qituvchilarni fan va uni o‘qitish metodikasiga doir yangiliklar bilan tanishtirish;

o‘qituvchilarga o‘zaro tajriba almashish, shu jumladan, “Ustoz-shogird” tizimida hamkorlik qilish imkoniyatini yaratish.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASASI DIREKTORINING VAZIFALARI

Tayanch maktablarda tashkil etiladigan o‘quvlarda ishtirok etadigan yetakchi o‘qituvchilar ro‘yxatini fanlar (yoki fan bloklari) kesimida shakllantiradi va tuman(shahar) ishchi guruhlariga taqdim etadi;

tayanch maktablarda tashkil etiladigan “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlariga muassasa yetakchi o‘qituvchilarining ishtirokini ta’minlaydi;

muassasada “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini samarali tashkil etish choralarini ko‘radi va zarur sharoitlarni yaratadi;

Eslatma

Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlari tayanch maktablarda o‘tkaziladi.

Direktor uchun muhim

“Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘tkaziladi. Agar o‘qituvchingiz tayanch maktablarga mentor-o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritadigan fan o‘qituvchi bo‘lib tayinlangan bo‘lsa unga direktor jamg‘armasi hisobidan lavozim maoshining 20 foizi miqdorida har oylik qo‘shimcha haq to‘lashni ta’minlash zarur.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i, 2-ILOVA

Amaliy tavsiya

Yetakchi o‘qituvchilarni tanlang → koordinatorni tayinlang → jadvallarni moslang → moliyani tartibga soling → davomatni nazorat qiling → hisobot bering. Bu tizimni to‘g‘ri joriy etgan maktabda o‘qituvchilar malakasi oshadi va ta’lim sifati yaxshilanadi.

TEZ-TEZ BERILADIGAN SAVOLLAR VA JAVOBLAR!

KASBIY RIVOJLANISH KUNLARI O‘QITUVCHILAR UCHUN ISH KUNI HISOBLANADIMI?

Albatta. Kasbiy rivojlanish kunlari fan o‘qituvchilari uchun odatdagi ish kuni hisoblanib, ularning faoliyati shu kuni bevosita o‘z malakasini oshirish, metodik seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tajriba almashish tadbirlariga yo‘naltiriladi.

KASBIY RIVOJLANISH KUNI DARS JADVALIGA QANDAY KIRITILADI?

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini dars jadvaliga kiritishda o‘quvchilarning haftalik yuklamasi, darslar ketma-ketligi va amaldagi sanitariya talablariga rioya etilishi ta’minlanadi.

O‘QITUVCHI TADBIRLARDA QATNASHMASA, QANDAY TARTIB QO‘LLANILADI?

O‘qituvchi o‘quv yili davomida ushbu tadbirlarida uzrli sabablarga (mehnatga layoqatsiz bo‘lgani, xizmat safarida bo‘lgani va qonunchilikda belgilangan boshqa holatlar) ko‘ra 12 soat qatnashmasa unga “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasida tashkil qilingan maxsus o‘quv kursida malaka oshirish orqali zarur bilim va ko‘nikmalarni egallash uchun imkoniyat beriladi. Agar uzrli sabablarsiz qatnashmagan bo‘lsa, maxsus o‘quv kursida shartnoma asosida malaka oshirishi talab qilinadi

1.6. UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH: MALAKA OSHIRISH VA AMALIY NATIJA

Iqtibos

“Kimki ilm, hikmat o‘rganmoqchi bo‘lsa, avvalo o‘zi ma’naviy barkamollikka erishmog‘i lozim.”

Abu Nasr Forobiy

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING MAQSADI

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishning maqsadi - xodimlarning egallab turgan lavozimlari, mutaxassisligi yoki dars beradigan fanlari bo‘yicha kasbiy va pedagogik mahorati doimiy ravishda o‘sib borishini, ularning ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o‘qitishning interaktiv usullari bo‘yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko‘nikmalari muntazam ravishda yangilashdan iborat.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 867-son qarori

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI

Rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarning kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish hamda zamonaviy talablarga muvofiq ta’lim sifatini ta’minlash uchun zarur kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish;

Pedagoglarni ularning kasbiy mahorati, bilim salohiyati va ehtiyojlaridan kelib chiqib tabaqalashtirilgan dasturlarga yo‘naltirish, metodik kompetentligini oshirish va zamonaviy ta’lim-tarbiya metodikalarini o‘zlashtirishiga ko‘maklashish.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 867-son qarori1-ilova 2-bob, 4-band

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING VERTIKAL TIZIMI

- Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik);
- Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik);
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda - Hududiy boshqarmalar);
- Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari;
- Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o‘rinlarda - Institut);
- Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (keyingi o‘rinlarda - Maktabgacha ta’lim instituti);
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar Pedagogik mahorat markazlari (keyingi o‘rinlarda - Hududiy markazlar);
- Pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari;
- Malaka oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan nodavlat ta’lim tashkilotlari;

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 867-son qarori, 1-ilova 3-bob

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish;
- masofaviy ta’lim;
- dual ta’lim;
- mustaqil ta’lim;
- muqobil shakllarda ta’lim olish.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 867-son qarori, 1-ilova 5-bob

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH TURLARI

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlari quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- menejerlik o‘quv kurslari;
- malaka oshirish kurslari;
- malaka oshirish kurslari oralig‘ida tashkil qilinadigan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlari;
- qayta tayyorlash kurslari

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 867-son qarori, 1-ilova 6-bob

Muhim

Pedagog va mutaxassis xodimlar uchun malaka oshirish kursining davomiyligi kamida 100 soat, rahbar xodimlar uchun kamida 144 soat etib belgilanadi.

Direktor uchun muhim

Har yili 15-oktabrgacha umumiy o‘rta ta’lim, Ixtisoslashtirilgan maktab va qo‘shimcha ta’lim tashkilotlarining rahbari tomonidan navbatdagi kalendar yilda malaka oshiradigan pedagog va mutaxassis xodimlar haqidagi ma’lumotlarni elektron platformaga kiritish orqali malaka oshirishga buyurtma shakllantiriladi. Bunda pedagog yoki mutaxassis xodimning avvalgi malaka oshirgan muddati, shuningdek, tashkilot xodimlarining har yili o‘rtacha 20 foizi malaka oshirishi lozimligi nazarda tutiladi.

MALAKA OSHIRISH KURSLARI ORALIG‘IDAGI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI

Har yili tashkil qilinadigan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlari - pedagog xodimlarning malaka oshirish kurslari oralig‘idagi kasbiy rivojlanish jarayonlari uzluksizligini ta’minlash, ulardagi kasb mahorati va malaka darajasining doimiy o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish asosida maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan.

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi	1. Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari pedagog kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlarini rejalashtiradi. 2. O‘quv reja va dasturlarni tasdiqlaydi.	Har yili avgust oyida
2-bosqich	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	1. Kontent materiallarini tayyorlaydi va “Virtual kasbiy rivojlantirish” elektron dasturiga kiritadi. 2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog kadrlari haqidagi ma’lumotlarni “Virtual kasbiy rivojlantirish” elektron dasturiga kiritilishini ta’minlaydi.	Har yili avgust oyida
	A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti	1. “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining kontent materiallarini tayyorlaydi. 2. O‘qituvchilar haqidagi ma’lumotlarni “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasiga kiritilishini ta’minlaydi.	Har yili avgust oyida
3-bosqich	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini “Virtual kasbiy rivojlantirish” elektron dasturidan foydalanib mustaqil ta’lim olishlarini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi.	O‘quv yili davomida
	A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti	1. “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish” soatlari tadbirlarining o‘quv jarayonlarini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi.	O‘quv yili davomida
	Hududiy boshqarmalar va tuman(shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari, maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari	1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari va maktab o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlarini tashkil etish uchun zarur sharoitlarni yaratadi. 2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari va maktab o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tadbirlaridagi ishtirokini ta’minlaydi.	O‘quv yili davomida

TEZ-TEZ BERILADIGAN SAVOLLAR VA JAVOBLAR!

MUSTAQIL TA’LIM SHAKLIDA KIMLAR MALAKA OSHIRISHI MUMKIN?

Uch yoshga to‘lmagan farzandi bo‘lgan ayollar, pensiya yoshidagi hamda nogironligi bo‘lgan pedagog va mutaxassis xodimlar pedagogik kengash qarori va o‘z arizasiga muvofiq elektron platforma orqali mustaqil malaka oshirishi mumkin.

Kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti pedagogik kengash qarori va xodimning arizasi asosida mustaqil malaka oshirish to‘g‘risida buyruq rasmiylashtiradi.

MALAKA OSHIRISHNING MUQOBIL SHAKLLARIDAN KIMLAR FOYDALANISHI MUMKIN?

Malaka oshirishning muqobil shakllari qonunchilikda belgilangan faoliyat natijalarini, jumladan darslik yoki o‘quv-metodik adabiyot mualliffigini, ilmiy daraja olish uchun dissertatsiya himoyasini, xalqaro yoki respublika ilmiy anjumanlarida ma’ruza bilan ishtirok etishni va nufuzli ilmiy nashrlarda maqola chop etishni tan olish orqali amalga oshirilishi mumkin.